

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Toshkent davlat yuridik**  
**universiteti rektori v.v.b.**

\_\_\_\_\_ **I. Rustambekov**

2023-yil “\_\_”-iyun

<b>Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish (davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, shuningdek, ijtimoiy soha va boshqa sohalardagi islohotlar haqida tasavvur va fikrlash qobiliyatining mavjudligi)</b>	
<b>T/r</b>	<b>Savollar</b>
<b>Konstitutsiyaviy huquq</b>	
<b>1.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O‘zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilangan. Bu nimani anglatadi?
<b>2.</b>	Siyosiy plyuralizm deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy hayotda siyosiy plyuralizmning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsating.
<b>3.</b>	Konstitutsiyada O‘zbekiston ijtimoiy davlat, deb belgilashning ahamiyati nimada?
<b>4.</b>	Konstitutsiyada davlat o‘z faoliyatini jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida amalga oshirishi nimani anglatadi?
<b>5.</b>	Konstitutsiyada “ijtimoiy birdamlik” prinsipining aks ettirilishi jamiyat hayotida qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi?
<b>6.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega deganda nimalar tushuniladi, uning ahamiyati qanday?
<b>7.</b>	Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi to‘g‘risidagi qoidani belgilanganligining ahamiyati qanday?
<b>8.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Jinoyat protsessida shaxsning “sukut saqlash huquqi” belgilanishining ahamiyati nimada?

<b>9.</b>	Jamiyat hayoti uchun har bir huquq sohasining o‘z o‘rni bor. Bunda, konstitutsiyaviy huquq yetakchi huquq sohasi deb e’tirof etiladi. Konstitutsiyaviy huquqning bunday maqomga munosib ko‘rilishi qay darajada asosli deb o‘ylaysiz? Fikringizni hayotiy misollar yordamida asoslang.
<b>10.</b>	Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va konstitutsiyaviy huquq manbalari o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud deb o‘ylaysiz? Fikringizni misollar yordamida ifodalang.
<b>11.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalq hokimiyatchiligi bobida qanday eng muhim g‘oya huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan?
<b>12.</b>	Davlat suvereniteti, xalq suvereniteti hamda millat suverenitetining o‘zaro nisbatini yoritib bering.
<b>13.</b>	Demokratiya shakllari bir biridan qanday jihatlariga ko‘ra farqlanadi?
<b>14.</b>	Shaxsning huquqiy maqomi deganda nima tushuniladi?
<b>15.</b>	O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy holatida qanday farqlar mavjud deb o‘ylaysiz? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.
<b>16.</b>	Teng huquqlilik deganda nimani tushunasiz? Teng huquqlilik prinsipini cheklashning konstitutsiyaviy asoslarini yoritib bering.
<b>17.</b>	Gender tengligining konstitutsiyaviy asoslarini muhokama eting. Sizingcha, gender tengligi nimani anglatadi?
<b>18.</b>	“Xabeas korpus” institutining joriy etilishi qaysi konstitutsiyaviy normalarning amalda to‘liq ishlashi uchun zamin yaratdi? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.
<b>19.</b>	So‘z erkinligi deganda nimani tushunasiz? Mamlakatimizda so‘z erkinligini ta’minlash borasida so‘nggi yillarda qanday ishlar amalga oshirildi?
<b>20.</b>	O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 36-moddasiga binoan fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siz “davlat va jamiyat ishlari” deganda nimani tushunasiz?
<b>21.</b>	Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini miting, yig‘ilish va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Miting, yig‘ilish va namoyish o‘rtasida qanday farqlar bor deb o‘ylaysiz?

<b>22.</b>	Davlat va jamoat birlashmalari o'rtasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
<b>23.</b>	Ariza, taklif va shikoyat kabi fuqarolarning murojaatlari turlari o'rtasida qanday farqli va o'xshash jihatlar mavjud?
<b>24.</b>	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qanday ijtimoiy huquqlar mustahkamlangan?
<b>25.</b>	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasiga binoan har bir shaxs madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqiga ega. Madaniyat yutuqlari deganda nimani tushunasiz?
<b>26.</b>	Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasining O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarining kafolatlarini yaratishdagi ahamiyati nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
<b>27.</b>	Sud tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishi deganda nimani tushunasiz? Fikringizni misollar yordamida ifodalang.
<b>28.</b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini tahlil eting.
<b>29.</b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining kafolatlarini yoritib bering.
<b>30.</b>	Vazirlar Mahkamasining davlat hokimiyatining boshqa organlari bilan munosabatlarini tahlil eting.
<b>31.</b>	Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis va Prezident oldidagi javobgarligi masalasini tahlil eting.
<b>32.</b>	Ijro hokimiyatining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
<b>33.</b>	Bosh vazirni lavozimidan ozod etish tartibini tahlil eting.
<b>34.</b>	Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibini yoritib bering.
<b>35.</b>	Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
<b>36.</b>	Hokimning huquqiy maqomini yoritib bering.
<b>37.</b>	Viloyat, Toshkent shahri, tuman, shahar hokimlarini tayinlash o'rtasidagi farqlarni tahlil eting.
<b>38.</b>	Mahalliy vakillik va mahalliy ijroiya hokimiyatining nisbatini tahlil eting.

39.	Xalq deputatlari Kengashi deputati faoliyatining kafolatlarini yoritib bering.
40.	Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qiladigan hujjatlarni tahlil eting.
41.	Saylovlarni moliyalashtirish tartibini yoritib bering.
42.	O‘zbekistonda sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlashda Sudyalar oliy kengashining o‘rnini tahlil eting.
43.	Sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarni saylash va tayinlash tartibini muhokama qiling.
44.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining maqomini yoritib bering.
45.	Takroriy ovoz berish va takroriy saylovning farqli jihatlarini tahlil eting.
46.	Prokurorlarni tayinlash tartibini yoritib bering.
47.	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi tartibini izohlab bering.
48.	Saylov tizimi va saylov huquqi tushunchalarining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
49.	Saylov huquqi prinsiplarining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
50.	Saylov jarayoni bosqichlarini tahlil eting.

### Ma’muriy huquq

1.	O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunining qo‘llanilish sohasini yoritib bering.
2.	O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunining ishonchlilik prinsipini yoritib bering.
3.	Ma’muriy huquq tushunchasi va mohiyatini yoritib bering?
4.	O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning byurokratik rasmiyatchilikka yo‘l qo‘yilmasligi prinsipini yoritib bering.
5.	Ma’muriy ish yuritishda manfaatdor shaxs tushunchasini yoritib bering?

6.	Ma'muriy ish yuritishda vakillik tushunchasini yoritib bering?
7.	Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruvning huquqiy va tashkiliy shakllarini yoritib bering?
8.	O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga binoan ma'muriy ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi holatlarni sanab bering?
9.	Ma'muriy ish yuritishda rad qilish masalasini tushuntirib bering?
10.	Ma'muriy ish yuritish muddatlarini tushuntirib bering?
11.	Ma'muriy ish yuritishni boshlash uchun asos bo'ladigan holatlarni yoritib bering?
12.	Ma'muriy protsess tushunchasini yoritib bering?
13.	Yustitsiyaviy ma'muriy protsess nima?
14.	Ma'muriy hujjatni ixtiyoriy ijro etish muddatini tushuntirib bering?
15.	Ma'muriy-huquqiy nizo nima?
16.	Ma'muriy huquqda ishontirish uslubini tushuntirib bering?
17.	Ma'muriy ish yuritishda bevosita majburlov tushunchasini yoritib bering?
18.	Ma'muriy ish yuritishda majburiy ijro choralarini qo'llash to'g'risida ogohlantirish masalasini tushuntirib bering.
19.	Davlat xizmati munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling?
20.	O'zbekiston Respublikasida davlat xizmati qanday turlarga bo'linishini tushuntirib bering?
21.	Davlat xizmatida davlat mansabi tushunchasini yoritib bering?
22.	Davlat xizmatchisini ishga qabul qilishda sinov muddatining qo'llanilish holatini huquqiy tahlil qiling?
23.	O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchisining xizmat bo'yicha harakatlanishini huquqiy taxlil qiling?
24.	Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi Qonunga ko'ra ushbu hujjat qaysi sohalarga tatbiq etilmaydi?

25.	Davlat fuqarolik xizmati tushunchasini tushuntirib bering.
26.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlarini sanab bering.
27.	Davlat boshqaruvida davlat xizmati tushunchasini yoritib bering.
28.	Davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar nimalardan iborat?
29.	Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining samaradorligini baholash qanday amalga oshiriladi?
30.	Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi kimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi?
31.	Qanday hollarda davlat fuqarolik xizmatchisiga intizomiy jazo choralari qo'llanilmaydi?
32.	Maxsus davlat xizmati va uni tashkil etish asoslarini tahlil qiling?
33.	Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini tugatish asoslarini sanab bering?
34.	Ma'muriy hujjatni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topishni tushuntirib bering.
35.	Ma'muriy shikoyat predmetini tushuntirib bering.
36.	Jamoatchilik nazorati subyektlarini tushuntirib bering.
37.	Jamoatchilik nazoratining obyektini tushuntirib bering.
38.	Jamoatchilik nazoratining shakllarini tushuntirib bering.
39.	Parlament nazorati subyektlarini tushuntirib bering.
40.	Parlament nazorati obyektini tushuntirib bering.
41.	Prokuror nazorati hujjati sifatida ogohlantiruvni tushuntirib bering.
42.	Prokuror nazorati hujjati sifatida taqdimnomani tushuntirib bering.
43.	Prokuror nazorati hujjati sifatida protestni tushuntirib bering.

<b>44.</b>	Prokuror nazorati hujjati sifatida qarorni tushuntirib bering.
<b>45.</b>	Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplarini tushuntirib bering.
<b>46.</b>	Ma'muriy ish yuritishda majburiy ijro choralarini tushuntirib bering.
<b>47.</b>	Ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish asoslarini tushuntirib bering.
<b>48.</b>	Ma'muriy hujjatning kuchga kirishini tushuntirib bering.
<b>49.</b>	Ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqishni keyinga qoldirish masalasini tushuntirib bering.
<b>50.</b>	Ma'muriy ish yuritishni tugatish masalasini tushuntirib bering.